

1991-2024 YILLARDA NAMANGAN VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING RIVOJI

Adasheva Shoiraxon Maxmudillayevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti

Email: shoiraadasheva@gmail.com

Тел: +998992220485

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1991–2024 yillar davrida Namangan viloyatida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish bosqichlari, muhim islohotlar va ularning hududiy tibbiy xizmatlar sifatiga ta'siri o'rganilgan. Mustaqillikdan so'ng joriy etilgan sog'liqni saqlash siyosatining asosiy yo'nalishlari, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan dasturlar tahlil qilingan. Shuningdek, viloyat sog'liqni saqlash tizimining tarixiy taraqqiyotini tahlil qilish orqali mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, sog'liqni saqlash, tibbiy xizmatlar, islohotlar, tibbiyot muassasalari, aholi salomatligi, shifokor, sog'liqni saqlash siyosati, tibbiyot markazlari.

РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1991-2024 ГОДАХ

Аннотация: В данной статье изучены этапы развития системы здравоохранения Наманганской области в период с 1991 по 2024 годы, важные реформы и их влияние на качество региональных медицинских услуг. Проанализированы основные направления политики здравоохранения, реализуемой после обретения независимости, меры по укреплению материально-технической базы медицинских учреждений, а также

программы, направленные на улучшение здоровья населения. Кроме того, посредством анализа исторического развития системы здравоохранения области выявлены существующие проблемы и перспективные направления развития.

***Ключевые слова:** Наманганская область, здравоохранение, медицинские услуги, реформы, медицинские учреждения, здоровье населения, врач, политика в области здравоохранения, медицинские центры*

THE DEVELOPMENT OF THE HEALTHCARE SYSTEM IN NAMANGAN REGION (1991–2024)

***Abstract:** This article examines the stages of development of the healthcare system in Namangan region from 1991 to 2024, key reforms, and their impact on the quality of regional medical services. It analyzes the main directions of healthcare policy implemented after independence, efforts to strengthen the material and technical base of medical institutions, and programs aimed at improving public health. Furthermore, by analyzing the historical development of the regional healthcare system, the article identifies existing challenges and promising directions for future development.*

***Keywords:** Namangan region, healthcare, medical services, reforms, medical institutions, public health, doctor, health policy, medical centers*

Kirish. Mustakillik yillarida sog'liqni saqlash borasida ham talaygina ishlar amalga oshirildi. Agar 1970 yilda Namangan viloyatida 98 ta shifoxona mavjud bo'lgan bo'lsa, 1985 yilga kelib shifoxonalar soni 108 gaga yetdi [1]. 1991 yilda esa viloyatda 19110 o'ringa ega bo'lgan 120 ta kasalxona, 12 ta sanatoriya, 45 ta kishlok uchastka kasalxonasi, 470 ta feldsher-akusherlik punktlari faoliyat ko'rsatdi. Dorixonalar 1941 yilda 12 ta bo'lgan bo'lsa, 1991 yilda ularning soni 157 taga yetdi. Viloyatda respublika ahamiyatiga molik «Chortoq», «Paxtaliko'l»,

«Parda Tursun» sanatoriylari qayta tashkil etildi. 1991 yil sogʻlikni saqlash tarmogʻiga ajratilgan budget mablagʻ 14,5 mln. soʻmni tashkil etdi. Har bir kishiga yetadigan mablagʻ 96 soʻmdan toʻgʻri keldi [2].

Namangan viloyati tashkil topgan 1941 yili viloyat boʻyicha sogʻliqni saqlash sohasida bor-yoʻgʻi 91 nafar shifokor va 500 ga yaqin xamshiralar ishlagan boʻlsa, 2000 yilga kelib, vrachlar soni 5492 tani tashkil etdi [2].

1941 yilda viloyatda bittagina «Tez yordam» mashinasi boʻlib, bemorlarga shifokorlar izvoshlarda xizmat koʻrsatgan. Kasalxonalarda 800 ta oʻrin boʻlib, ular moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi [2]. Buni oʻsha davrda 2-jahon urushi boshlanib hamma narsa frontga safarbar etilganligi bilan izohlash mumkin.

Asosiy qism. Mustakillikning dastlabki yillarida tibbiyot sohasini rivojlantirish uchun alohida ahamiyat qaratildi. Masalan, viloyatda 1994 yili 16 ta “Tez tibbiy yordam” stansiyasi faoliyat yuritgan [1]. Chunonchi, 1992-1994 yillarda Goʻzal mavzesida koʻp tarmoqli bolalar shifoxonasi, ona va bolaga moʻljallangan tugʻruqxona, ayollar maslahatxonasi, Uychi, Uchqoʻrgʻon, Chortoq tumanlarida eng zamonaviy tibbiyot jihozlari, asbob-uskunalar bilan taʼminlangan poliklinika, tibbiyot punktlari, Chernobil halokati qatnashchilari uchun sanatoriya, Namangan shahrida yurak xastaliklarini davolovchi kardiologiya markazi barpo etildi.

Namangan viloyatida 1991-2001 yillar mobaynida 104 ta qishloq shifokorlik punktlari barpo etildi, 41 ta qishloq shifokorlik ambulatoriyasi va feldsher-akusherlik punktlari qishloq shifokorlik punktlariga aylantirildi. Shu davrda 1505 oʻrinli kasalxona, bir smenada 43,7 ming bemorni qabul qiluvchi poliklinikalar qurildi, shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat koʻp tarmoqli kasalxonasi, oʻsma kasalliklar, Namangan shahar onalar va bolalar fizioterapevtik, yukumli kasalliklar shifoxonasi foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari, asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Namanganda Semashko nomidagi respublika fizioterapevtik ilmiy tadqiqot instituti, respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituti hamda respublika salomatlik institutlarining

viloyat filiallari, nevrologiya, endokrinologiya va urologiya markazlari aholiga xizmat ko'rsatdi [3]. Bu yerlarda nafaqat viloyat aholisi, shuningdek Farg'ona vodiysining boshqa hududlaridan kelgan ko'plab bemorlar yurak, qon-tomir, xarakat-tayanch organlari va asab xastaliklari bo'yicha davolandidilar.

2001 yil Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialiga Germaniyaning "Dina dentomed" firmasi bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra 850 ming AQSH dollariga teng tibbiyot uskunalari keltrildi. Ilmiy markazda 9 ta yo'nalish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilib, 131 nafar malakali vrach, 320 nafar hamshira mehnat qildi [4].

Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimov 2004 yil 17 sentabrda bo'lib o'tgan xalq deputatlari Namangan viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqida "Chunonchi, 1996-2003 yillarga rejalashtirilgan 209 ta qishloq vrachlik punktidan 32 tasi ishga tushirilmagan"ini ta'kidlab, sog'liqni saqlash borasidagi ishlarni tanqid qilgan edi[5].

2010-2023 yillarda Namangan viloyatidagi shifoxonalar soni o'zgaruvchan bo'lgan. Davr mobaynida 56 ta (2011) minimal va 131 ta (2018) maksimal daraja kuzatilgan. 2023 yilda 118 ta shifoxona faoliyat yuritgan. 2010-2023 yillarda viloyatdagi shifoxonalar soni quyidagicha bo'lgan: 2010 yilda 108 ta, 2011 yilda 56 ta, 2012 yilda 114 ta, 2013 yilda 105 ta, 2014 yilda 97 ta, 2015 yilda 112 ta, 2016 yilda 115 ta, 2017 yilda 125 ta, 2018 yilda 131 ta, 2019 yilda 116 ta, 2020 yilda 108 ta, 2021 yilda 110 ta, 2022 yilda 114 ta va 2023 yilda 118 ta [6]. 2011 yilda keskin pasayish (56 ta) – ehtimol, sohaga bo'lgan davlat siyosatidagi o'zgarish yoki tibbiyot muassasalarining qayta tashkil etilishi sabab bo'lgan. 2012 yilda to'satdan 2 baravarga oshgan. 2017-2018 yillarda eng yuqori o'sishga erishilgan. 2019-2020 yillarda shifoxonalar soni kamaygan. 2021-2023 yillarda qayta tiklanish kuzatilgan. 2017-2018 yillarda shifoxonalar ko'paygan, bu tibbiy xizmat sifatini oshirish dasturlari va viloyatda aholi soni ortib borgan sababli,

tibbiy muassasalar soni ham oshishi talab etilishi bilan bog'liq bo'ldi. Kosonsoy va Chust kabi katta aholiga ega hududlarda tibbiy muassasalar soni barqaror bo'ldi. 2010-2023 yillar davomida Namangan shahrida shifoxonalar soni o'zgarib borgan, 2010 yilda 40 ta bo'lgan shifoxonalar soni 2018 yilda 55 ta gacha oshgan, keyin esa 2021 va 2023 yillarda 47 taga kamaygan. Yillar kesimida 2010 yilda 40 ta, 2013 yilda 52 ta, 2016 yilda 50 ta, 2018 yilda 55 ta, 2021 yilda 47 ta va 2023 yilda 47 ta bo'lgan[6].

Hududlar kesimida olsak viloyatda tashkil etilgan yangi 2 ta tuman – Davlatobodda 2022 yildan boshlab 2 ta, Yangi Namangan tumanida esa shifoxona mavjud emas, Ya'ni, aholi tibbiy xizmatdan foydalanish uchun Namangan shahriga borishadi. Shifoxonalar soni bo'yicha tumanlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Kosonsoy (2010 yilda 17 ta, 2013 yilda 7 ta, 2016 yilda 11 ta va 2019 yildan beri 14 ta) va Chust (2010 yilda 10 ta, 2013 yilda 10 ta, 2016 yilda 13 ta, 2018 yilda 15 ta va 2019 yildan beri 11 ta) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Mingbuloq (2010 yilda 3 ta, 2011 yilda 1 ta, 2014 yilda 2 ta, 2017-2019 yillarda 3 ta, 2021 yilda 1 ta va 2023 yilda 3 ta) va Norin (2010 yilda 4 ta, 2011 yilda 1 ta, 2013 yilda 4 ta, 2016-2018 yillarda 2 ta, 2019-2021 yillarda 1 ta va 2022 yildan beri 2 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2010-2023 yillar davomida Namangan viloyatida shifoxonalardagi koykalar soni barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Agar 2010 yilda 10 423 ta койка mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 15 654 ta ga yetgan, ya'ni 50% ga oshgan. Yillar kesimida koykalar soni quyidagicha bo'lgan: 2010 yilda 10423 ta, 2012 yilda 10555 ta, 2014 yilda 10580 ta, 2016 yilda 10971 ta, 2018 yilda 12796 ta, 2020 yilda 12244 ta va 2023 yilda 15654 ta [6]. Koykalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahri (2010 yilda 5324 ta, 2014 yilda 4839 ta, 2019 yilda 6824 ta, 2021 yilda 5940 ta va 2023 yilda 5609 ta), Chust (2010 yilda 579 ta, 2014 yilda 748 ta, 2018 yilda 1067 ta, 2020 yilda 849 ta va 2023 yilda 1131 ta) va Pop tumanlariga, eng past ko'rsatkich esa Mingbuloq tumaniga (2010 yilda 287 ta, 2014 yilda 248 ta, 2016 yilda 250 ta, 2017 yilda 647 ta, 2020 yilda

424 ta va 2023 yilda 515 ta) to'g'ri kelgan. 2010-2016 yillarda sekin o'sish, 2018 yilda esa keskin oshish kuzatilgan. 2023 yilda esa 15 654 tagacha oshgan.

2010 yil 2023 yilni taqqoslaganda To'raqo'rg'on (2010 yilda 378 ta, 2015 yilda 865 ta, 2018 yilda 930 ta, 2020 yilda 969 ta, 2021 yilda 846 ta, 2023 yilda 1026 ta), Yangiqo'rg'on (2010 yilda 389 ta, 2014 yilda 450 ta, 2018 yilda 700 ta, 2021 yilda 885 ta, 2023 yilda 895 ta) tumanlarda keskin ko'payishi kuzatildi. Viloyat bo'yicha 2010-2023 yillar orasida eng yuqori o'sish foizlari To'raqo'rg'onda 171 %, Yangiqo'rg'onda 130%, Chustda 95% va Mingbuloqda 75 % ko'payish kuzatilgan. Buni viloyatda aholi o'sishi va tibbiy xizmatga ehtiyoj ortishi, shifoxonalarda infratuzilma yaxshilanishi, yangi bino va bo'limlar ochilishi, davlat va xususiy investitsiyalar sohaga yo'naltirilishi va ayrim tumanlarda (Chust, To'raqo'rg'on) tibbiy muassasalar kengayganligi bilan izohlash mumkin.

Shifoxonalar soni ortib borishi barobarida undagi o'rta tibbiyot xodimlari, tibbiyot vrachlari va xodimlar soni ham o'sib bordi. Tibbiyot xodimlari soni 2010 yilda 25502 nafar bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 36531 nafarga yetgan (43% oshgan). Tibbiyot vrachlari soni esa 2010 yilda 3751 nafar bo'lib, 2023 yilda 6192 nafar ga yetgan (65% oshgan) [6]. Tibbiyot xodimlari va vrachlar sonining oshishiga ta'sir qilgan omillar: Tibbiyot muassasalari soni ko'payishi, tibbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayoni kuchaytirilgani, davlat va xususiy investitsiyalar ortib, sohaga katta e'tibor qaratilishi va ayrim tumanlarda tibbiyot markazlari kengayganligi.

Viloyatda tibbiyot tizimini tubdan isloh etish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmolqda. Buni raqamlar misolida oladigan bo'lsak, 2019 yil uchun respublika bo'yicha sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishga jami 900 milliard so'm mablag' ajratilgan. E'tiborlisi shundaki, Namangan viloyatidagi bu ezgu maqsadlar ro'yobiga 76 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltirilgan [7]. Namangan viloyatida keyingi yillarda aholi salomatligini mustahkamlash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sifatli va malakali tibbiy xizmat samaradorligini oshirish, qolaversa, sohaga yangidan yangi innovatsion g'oyalarni keng tatbiq

etishda xususiy sektorning ulushi tobora ortib bormoqda.

2019 yil oktabrda Namangan shahridagi «Shodiyona» tantanalar majmuasida «Sogʻliqni saqlash tizimidagi islohotlarni qoʻllab-quvvatlash» mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani boʻlib oʻtdi. Viloyat hokimligi, respublika Innovatsion sogʻliqni saqlash milliy palatasi viloyat hududiy boʻlinmasi va viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan tadbirda milliy palataning Qoraqalpogʻiston Respublikasi va barcha viloyatlardagi hududiy boʻlinmalari rahbarlari hamda viloyat tibbiyot jamoatchiligi vakillari qatnashdi. Sogʻliqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar va ularning samaralari toʻgʻrisida viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi boshligʻi, tibbiyot fanlari nomzodi, Oliy Majlis Senati aʼzosi Solijon Moʻminov oʻz mulohazalarini bildirib oʻtdi. Tibbiyot fanlari doktori, «Oydinshifo» shifoxonasi rahbari Mirmahmud Mirsaydullayev, «Doktor-A» diagnostika markazi bosh shifokori Maʼmurjon Oxunov, «ANAMED» diagnostika markazida faoliyat olib borayotgan hindistonlik doktor Paramjit Singx, «Saydana» tibbiyot markazi bosh shifokori Baxtiyor Joʻrayev va boshqalarning chiqishlarida sohada tatbiq qilinayotgan yangi texnologiyalar, tibbiyot hamda farmatsevtika sanoatining istiqboli bilan bogʻliq vazifalarga eʼtibor qaratildi [7].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 apreldagi 211-son Qaroriga koʻra viloyatda aholi salomatligini saqlash boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirish maqsadida quyidagilar rejalashtirib olindi: 1. Birlamchi tibbiyot boʻgʻinida aholiga koʻrsatiladigan tibbiy xizmat turlarini koʻpaytirish va sifatini oshirish. 2. Erta oʻlimning asosiy sababi boʻlgan qon bosimi va onkologik kasalliklarini davolash uchun, aholiga eng zarur dori vositalarini bepul yetkazish. 3. Buyrak kasalliklarini erta aniqlash maqsadida, barcha birlamchi tibbiyot muassasalari ekspress-test vositalari bilan taʼminlash. 4. Onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun, 45 yoshdan oshgan 210 ming ayol har yili skrining tekshiruvidan oʻtkazish. 5. 430 ming nafar bolalar va homilador ayollarni vitaminlar bilan bepul taʼminlash.

Viloyatdagi tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash maqsadida 13 ta tibbiyot muassasalarida qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish maqsadida Tibbiyot muassasalarida 1350 o'rin, 900 ta qatnov tashkil etish uchun Respublika budjetidan 99,7 mlrd so'm ajratildi [8].

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini oshirish, birlamchi bo'g'in muassasalari, jumladan, oilaviy shifokor punktlari faoliyatini yaxshilash maqsadida oilaviy 6 ta mahallada shifokorlik punktlari faoliyatini yo'lga qo'yish (mahalliy budjet mablag'laridan 8,1 mlrd so'm), birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida eng ko'p uchraydigan kasalliklarni aniqlash, zarur dori vositalarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va bemorlarga bepul berish (Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan 9,0 mlrd so'm) hamda Uychi, Yangiqo'rg'on va Chust tumanlarida tumanlararo 30 o'rinli perinatal markazlarini tashkil qilish uchun Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan 3,5 mlrd so'm ajratish belgilab olindi.

Viloyatda yangi turdagi va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni yo'lga qo'yish uchun quyidagilar amalga oshirildi: Tuman va shaharlarda 19 turdagi amaliyotlarni (laparoskopik, torakoskopik va endovaskulyar) joriy etish (hisob-kitoblar asosida Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan), 350 nafar tug'ma yurak nuqsoni bor bolalarni yuqori texnologik bepul operatsiya qilish (Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan 14 mlrd so'm)

2022 yilda viloyatda aholiga yuqori texnologik tibbiy xizmatlar ko'rsatish va ixtisoslashgan markazlar faoliyatini kengaytirish uchun quyidagilar rejalashtirib olindi: 1. Uchqo'rg'on, Norin, Chortoq, To'raqo'rg'on, Namangan, Mingbuloq, Yangiqo'rg'on, Kosonsoyda nevrologiya va endokrinologiya yo'nalishlari bo'yicha Respublika ixtisoslashgan markazlar viloyat filiallarining tumanlararo bo'limlari tashkil qilish (Hisob-kitob asosida Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan).

2. Yangiqo'rg'on, Davlatobod tumanlari tibbiyot birlashmalari laparoskopik uskunalari bilan ta'minlanib, kaminvaziv operatsiyalar o'tkazish yo'lga qo'yish

(Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan 3 mlrd so'm).

3. Yuqori texnologik, murakkab jarrohlik operatsiyalar ko'lamini kengaytirish uchun, Kardiologiya markazining Namangan filialini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash (xorijiy kredit mablag'laridan 9 mln yevro).

4. Travmatologiya va ortopediya markazining Namangan filialiga yangi bino ajratiladi va moddiy texnik-bazasini yaxshilash (Sog'liqni saqlash vazirligi mablag'laridan 21 mlrd so'm).

Viloyatda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda xususiy sektorning rolini oshirish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni jadal rivojlantirish uchun 1. Xususiy sheriklik va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hisobidan Namangan shahrida 2 ta loyiha ishga tushirish (20,5 mlrd so'm-15,0 mlrd so'm tashabbuskorlar mablag'i, 5,5 mlrd so'm bank krediti). 2.27 ta xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etish (31,0 mlrd so'm tashabbuskor mablag'lar). 3. Namangan shahrida xalqaro universitet va zamonaviy klinikadan iborat Tibbiyot klasteri tashkil etish.

Viloyatda tibbiyot sohasidagi kadrlar tayyorlashda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filiali asosiy muassasalardan biri hisoblanadi. Mazkur muassasa Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining eng katta filiallaridan biri bo'lib, u 2000 yildan beri ishlaydi va 350 ta yotoqdan, shu jumladan 42ta reanimatsion. 330ta yotog'iga ega bo'lgan 12ta subfilial ishini boshqaradi. 15ta klinik bo'limida 350ga yaqin shifokor (1ta doktor va 7 ta fan nomzodi) va 782 dan ortiq hamshira ishlaydi[9]. Ma'lumki so'nggi yillarda davlatimizda oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari hamda muassasalar tegishli vazirliklarga birlashtirilib, ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filiali qabul komissiyasi, har yili Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli buyrug'iga asosan, 7 xil yo'nalishda klinik ordinaturaga xujjatlarni bevosita qabul qilib kelmoqda. Jumladan, mutaxassislik bo'yicha yo'nalishlar – Anesteziologiya-reanimatologiya, Umumiy xirurgiya, Travmatologiya va ortopediya, Ichki kasalliklar (terapiya)

(yo'nalishlari bo'yicha), Pediatriya (yo'nalishlari bo'yicha), Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi, Shoshilinch tibbiy yordam.

RSHTYOIM Namangan filialida xorijlik mutaxassislar ishtirokida bir qator jarrohlik amaliyotlari va ilmiy seminarlar o'tkazilishi tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa o'z navbatida shifokorlar malakasi va tajribasini oshirish hamda bemorlarni davolashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, 2024 yil 1 aprel kuni bir guruh Xindistondan kelgan shifokorlar tomonidan amaliyotda mahorat darslari tashkil etildi. Amaliy mahorat darslarini tibbiyot fanlari doktori Dr.Vaibhav Patel va Dr.Dharmisinh Jadeja tomonidan bemorlarda zamonaviy jarroxlik amaliyoti orqali og'ir turdagi amaliyot bajarildi. Bemorda markazda ilk bor murakkab jarroxlik operatsiyasi ya'ni bir vaqtning o'zida "ikkala chanok son bugimini total endoprotezlash" operatsiyasi o'tkazildi

Xulosa. 1991–2024 yillar davomida Namangan viloyatida sog'liqni saqlash tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Mustaqillikdan so'ng amalga oshirilgan islohotlar natijasida tibbiyot muassasalari soni ortdi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy tibbiy markazlar tashkil etildi va aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan dasturlar faoliyat olib bordi. Sog'liqni saqlash siyosatining ustuvor yo'nalishlari viloyatdagi tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, shifokorlar malakasini oshirish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida muhim natijalarga erishildi. Shu bilan birga, mavjud muammolar - kadrlar yetishmasligi, ayrim hududlarda infratuzilmaning zaifligi kabi masalalar hali ham o'z yechimini kutmoqda. Kelgusida bu muammolarni hal qilish orqali Namangan viloyatida sog'liqni saqlash tizimining yanada samarali va barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати аҳолиси, хўжалиги).- Наманган: Наманган вилояти ҳокимияти ноширлик бўлими, 1995.-Б. 143.

2. Мадатов А. Халқи сом-омон юртнинг заволи йўқ. Намангаи ҳақиқати 1991 й 27 март.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-том. – Тошкент, 2003. – Б. 253.
4. Қувончли ўзгаришлар // Наманган ҳақиқати. 2001 йил 10 февраль
5. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Асарлар. -Т.: Ўзбекистон, 2005.-Т.13.-Б.25-26.
6. namstat.uz
7. [Наманганда республика анжумани: Келажак тиббиёти бугундан шаклланади.](#)
8. <https://lex.uz/uz/docs/-5984308>
9. <https://emerg-centre.uz/filiallar/namangan/?lang=uz>